

TIL TA`LIMIDA MILLIY ISTIQLOL G`OYASIDAN, TARIXDAN VA NAVOIY ASARLARIDAN FOYDALANISH

Murodova Lobar

Jizzax davlat pedagogika instituti talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada O`zbekiston til ta`limida milliy istiqlol g`oyasidan, tarixdan va Navoiy asarlaridan foydalanish kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so`zlar: til va adabiyot, ona tili, matn, kitob, Navoiy, interfaol usullar.

XX asrda ona tilining hikoya qilish, matn yoki kitob bilan ishlash, til bo`limlari doirasida mashqlar bajarish kabi o`qitish usullaridan keng foydalanilgan bo`lsa, til o`qitishning zamonaviy verbal induktiv – kognitiv – pragmatik ta`lim usuli, ongi verbal – kognitiv ta`lim usullari kabi interfaol usullar kirib keldi. Ular o`quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari o`sayotgan davrda muhim rol' o`ynaydi. Bu o`qitish metodlari til fanining bo`limlaridagi qonuniyatlarni egallab olish, ayniqsa, o`quv amaliy ko`nikma va malakalarni egallahda samarali yordam beradi.

Yangi asrda til o`qitilishining dolzarb masalalari, bizningcha, quyidagicha:

1. O`quvchilarni matn yaratishga o`rgatish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Nutq o`stirishning asosida matn yaratish yotishi bugungi kunda har bir o`qituvchiga ma`lum. Shuning uchun ham o`qituvchi o`quvchilarning fikrlash qobiliyatini o`stirish bilan birga, ularning ijodiy fikr mahsulini to`g`ri va ravon ifodalashga, bog`lanishli matn yarata olishga, to`g`ri nutq tuzishga o`rgatishlari lozim. Til bo`ldiradi ham, o`ldiradi ham, - deydi dono xalqimiz. Bu fikrni bir rivoyat bilan izohlamoqchimiz. Qadimda ikki do`st mamlakat shohlari davlatlar o`rtasida hamkorlik o`rnatish maqsadida uchrashishibdi. Ular ikki tilda so`zlashgani uchun tarjimonni chorlashibdi. Uzoq davom etgan muzokarada noshud tarjimonning tili tutilibdi. «Tinchlik» so`zini «Tanglik» deb tarjima qilibdi. Shohlarning kayfiyati buzilibdi, bir-birlaridan ixloslari qaytibdi. Ikki xalq taqdiri hal bo`lar payti tarjimonning boshi aylanib, «Do`stlik» so`zini «Qasdlik» deb tarjima qilibdi. O`rtaga shubha oralab, ikki davlat o`rtasida urush boshlangan ekan.

2. O`zbek tili – baynalmilal til. Uning lug`at boyligida fors, arab, sug'd, qadimgi eroniylar, sanskrit, xorazmiy, lotin, xind, mo`g'ul, xitoy, ingliz, nemis, frantsuz, rus tillaridan o`zlashgan so`zlar mavjud. Mustaqillik yillaridan boshlab evropa xalqlarining tillariga oid so`zlar, asosan, ingliz tili orqali kirib kelayapti. Sanskrit, xind, eroniylar so`zlari o`zbek tiliga 2-3 ming yil davomida o`zlashdi. Arabcha so`zlar 7-8 asrdan boshlab qo`llana boshlandi. Olinma so`zlar haqidagi muhim bilimlar xorijiy tillarni bilishga katta qiziqish bilan qarayotgan hozirgi yoshlar uchun juda zarur. Maktablarda, litsey va kollejlarda, oliy ta`limda chet tillarini o`rganishga qiziqish ancha kuchli. O`quvchi va talaba ona tilidagi olinma so`zlarning majmui,

turi, ma`nolari, qo`llanishi, uslubiy xususiyatlari bilan tanishsa, uning ona tiliga mehri yanada ortadi, chet tilini o`rganishi bir muncha osonlashadi.

3. Ota – bobolarimiz azaldan yuqori saviyadagi nutq madaniyatiga ega bo`lishgan. O`zlarining fikr – mulohazalarini tinglovchiga og`ir botmaydigan tarzda etkazishga harakat qilishgan. Bugungi kunda yoshlarimiz o`z fikrini ixcham va chiroyli tarzda ifodalay olmaydilar. Til o`qituvchisining asosiy vazifasi o`quvchiga tildan unumli foydalanishni o`rgatishdir. «Til millatning ulkan boyligi va beba ho mulkidir» deyiladi O`zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonunida. Shunday ekan, ta`lim va tarbiya berish jarayonida o`quvchilar nutqining ravon, tushunarli bo`lishi uchun, eng avvalo, uning nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etishga e`tibor berish zarur. Amaliyotda qo`llay olish malakasi bilan bog`liqdir. O`quvchi savol-topshiriqlar asosida topshiriqni bajarar ekan, grammatika qoidalarini yozma nutqida qo`llashga xarakat qiladi. Bunday ishlarda o`quvchi nisbatan tor doirada mustaqil xarakat qiladi. Agar mustaqil ravishda so`z boyligini oshirib, yangicha matn yaratishga muvaffaq bo`lsa, mavzuni o`zlashtirish darajasi ham yuqori bo`ladi. Mavzu yuzasidan gap, o`zaro bog`liq gaplar, ixcham matn, bayon, hikoyalar tuzishni o`quvchilarga har bir mavzudan keyin o`rgatish ular nutqining shakllanishiga xizmat qiladi. Demak, bizning yoshlarimiz ham muomala madaniyatiga o`rgatilishi, dars jarayonida nutq tarbiyasi berib borilishi zarur.

4. O`quvchi shaxsida faollik hamda mustaqillik kabi jihatlarni shakllantirish hamda rivojlantirish ham bugungi kun ta`limining asosiy masalalaridandir. Mustaqillik va faollik bir-biri bilan uzviy bog`liq. Agar faollik o`quvchining u yoki bu ko`rinishidagi faoliyatda o`zini shaxs sifatida namoyish etishi tarzida qaralsa, mustaqillik ushbu faoliyatda ishtiroki jihatlarini aniqlaydi. Hozirgi kun ta`limi o`quvchidan mazkur jarayonda aynan shunday ishtirokni, ham faol, ham mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyati shakllangan bo`lishini talab qiladi.

O`rta umumiyligi ta`lim tizimidagi fanlar orasida milliy mafkura g`oyalarini o`quvchilarga singdirishda o`zbek xalqi milliy ruhini o`zida mujassam etgan “Ona tili” fanining alohida o`mi bor.

Mustaqillik davrida yaratilgan 5-9-sinflar “Ona tili” darsliklarida va o`qituvchi kitoblarida milliy mafkuramizning asosiy g`oyalari: Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo samimiy munosabat va boshqalar, shuningdek, milliy istiqlol mafkurasining tarixiy, falsafiy va iqtisodiy asoslari hamda uning milliy va umuminsoniy tamoyillari masalalari hisobga olingan va darsliklar bu oljanob g`oyalarni o`quvchilar ongiga singdirishga qaratilgan bir qancha matnlar, suratlar va misollar bilan ta`minlangan. Masalan: 6-sinf “Ona tili” darsligidagi istiqlol sharofati bilan davlat tili maqomiga ega bo`lgan ona tilimiz haqidagi “Davlat tili” (4-5-betlar), uning xalq tili sifatida uzoq tarixga egaligi to`g`risidagi “O`zbek tili ildizlari” (5-6-betlar), uning boyligi haqidagi “Alisher Navoiy o`zbek tili xususida” (43-bet), xalqimizning ism tanlash udumini ifodalovchi “Ism ham husn” (80-bet), joy nomlarida ijtimoiy-tarixiy voqealarning aks etishiga

bag'ishlangan "Joy nomlari - tarix muhri" (84-bet) matnlari til va jamiyat, tilda milliy ruh va mafkuraning aks etishi masalalariga bag'ishlangan bo`lsa, "Eng xushbo`y hid" (92-bet) matnida xalqimizda e`zozlanuvchi non madhi, "Keraksiz o`t" (100-bet) matnida Ibn Sinonint tabiatdagi har bir narsaning bog'liqligi haqidagi fikrlari, "Ranglar jilosi" (135-bst) matnida O`zbekiston hududidagi tarixiy obidalarda qo`llangan ranglar jilosining betakrorligi, "Olamshumul kashfiyot" (145-bet) matnida vatandoshimiz Ahmad Farg'oniyning arab raqamlari tizimini mukammallashtirishga qo`shgan ulkan hissasi tarannum etiladi, Mirzo Ulug'bek haqidagi (169-bet) matn ulug' olim va adolatli shoh haqida eslatma beradi.

Bulardan tashqari, mashqlar uchun tanlangan jumlalar (misollar) tarixiy va badiiy asarlardan olingan bo`lib, istiqlol mafkurasiga mos keladi, o`quvchilar ta`lim-tarbiyasiga xizmat kiladi. 7-, 8-sinflar darsliklarida ham milliy istiqlol g`oyalarini singdirishga katta e`tibor qaratilgan. Darslik "1-sentyabr' - Mustaqillik kuni" bayram tasviri va o`quvchilarni bu bayram bilan qutlovchi matn bilan boshlanadi. Keyingi sahifada Shukrulloning "Istiqlol" she`ri, so`ng "Istiqlol mash`ali" matni berilgan. Ularda "mustaqillik", "istiqlol" tushunchalarining mohiyati, bu ulug' ne`mat xalqimizning asriy orzusi ekanligi ochib berilgan. Darslikdagi "Chin dugona" (5-bet) matnida - o`zbekona odob, o`zaro beg' araz yordam ruhi tasvirlanadi, "Bilimlar xazinasi kaliti" (6-bet) matnida ko`p til bilishning ahamiyati, "Maxmud Zamaxshariy" (8-bet) matnida yurtdoshimiz bo`lgan bu mashhur olimning arab olamidagi shuhrati, "Abdurauf Fitrat" (55-bet) matnida shoir va olimning xalqimizga qilgan ulkan xizmatlari, "Imom Ismoil Buxoriy" (67-bet) matnida bu ulug' zotning islom olamidagi shon-shavkati, "Sohibqiron" (118-bet) matnida markazlashgan davlat va taraqqiy etgan jamiyat tarafidori Amur Temurning tavsifi aks ettirilgan. Darslikdagi "Insoniy hayot" (30-bet), "O`gdulmish va O`zg'urmish" (39-bet), "Til odoi" (67- bet), "To`g'rilik" (71-bet), "Rivoyat" (109-bet) matnlarida xalqimizning odob-axloq, tug'rilik-xalollik, ezgulik va mehnatsevarlik haqidagi qarashlari o`z ifodasini topgan. Bulardan tashqari, darslikda milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz, buyuk ajdodlarimizga oid g`oyalar aks ettan jumlalar mashqlar tarkibida ham berilgan.

Darsliklarda berilgan matnlarning ma`naviy-ma`rifiy ahamiyati e`tiborga molik. Buni 8-sinf darsligi misolida ham kuzatish mumkin, Darslikda keltirilgan badiiy matnlarni quyidagi mavzularga umumlashtirish mumkin: Vatanga, xalqqa, millatga mehr-muhabbat tuyg'ularini uyg'otishga qaratilgan matnlar. Insoniy fazilatlarni ulug'lash g`oyasi "Mukofot va jazo", "Hunarmandlar maktabi", "Nima eksang, shuni o`rasan!". "Nochorlik nimadan?", "Yalqov" kabi matnlarda aks ettirilgan.

Milliy qadriyatlarni ulug'lash, tarixiy an`analarni e`zozlash, "Navro`z haqida afsona" matnida hamda "Alisher Navoiy nomidagi Milliy bog`da" mavzuidagi insho topshirig'ida mujassamlangan.

Vatanga, millatga mehr-muhabbat tuyg'ulari butun darslik bo`limlari davomida sezilib turadi. "Qo`shma gap" mavzusini mustahkamlashga qaratilgan 17-mashqda berilgan "Cho'l bahori" matnida yurt go`zalliklaridan bir lavha namoyon qilingan. Bu o`lkada bir qarashda

ko`rimsizday tuyulgan cho`llarning ham o`zgacha tarovatga ega ekanligi, o`zida betakror go`zallikni jo qilganliga tasvirlangan. Qo`shma ganlarni sodda gaplardan ajratib yoza boshlagan o`quvchi "jala quygan vaqtdagi oftobning nur sochishi" holatidagi go`zallikni shuurida his qilgandek bo`ladi...

Ona yurtga bo`lgan samimiy muhabbat, quvonch, faxr tuyg'ulari "So`roq gaplar" mavzusini mustahkamlash uchun keltirilgan "Men nechun sevaman O`zbekistonni?" she`rida kul'minatsion darajada o`z ifodasini topgan.

"Vatanga mehr-muhabbat gimni"ga aylangan bu she`r har bir o`zbekning, o`zini shu millat vakili sanagan har bir farzandnint qalb izhoridir. Ona yurtga bo`lgan tengsiz mehr, samimiy muhabbat Abdulla Oripov mahorati orqali misralar matnga singdirilgan.

Yurt mehri ajdodlarga bo`lgan muhabbat orqali uyg'unlashib ketadi. Negaki, yurtni kamol toptirishda, millatning ma`naviyat darajasini yuksaltirishda donishmand, alloma ajdodlarning o`rni beqiyos. Yosh avlodga ajdodlarimizning ibratli jihatlarini ko`rsatish, fazilatlarini tasvirlash, hayotiy tajribalarini yoritish ta`lim tizimida ijobiy ahamiyat kasb etadi.

Erkin Vohidovning "Ona tilim o`lmaydi", Mirtemirning "Ona tilim" she`rlarida tilga bo`lgal mehr-muhabbat tuyg'ulari ifodalanganki, bu o`quvchi shuurida ona tili bilan faxrlanish hissini uyg'otadi.

O`quvchilar ma`naviyatini takomillashtirishda, ular ongini o`stirish, dunyoqarashini shakllantirshini badiiy asarlarning o`rni beqiyos. Shu ma`noda "Oqila qiz", "Ilonning ishi - zahar solmoq" ertaklari, har galgidek, ezgulikning g'alabasi haqida bo`lib, o`quvchilarni yaxshilikka etaklaydi.

O`qituvchi darsliklarda berilgan mavjud manbalar bilan cheklanib qolmasdan, kundalik hayotimizdagi o`zgarishlar, yangiliklar asosida ona tili mashg`ulotlariga yangidan-yangi materiallarni, matnlarni olib kirishi mumkin. Bayon va insho mashqlarini tanlashda, ularni yozishga tayyorgarlik ko`rish jarayonida miyaliv istiqlol g`oyalarining aks ettirilishiga o`quvchilar diqqatini tortish o`qituvchining mahoratiga bog`liq. Milliy istiqlol mafkurasi g`oyalarini o`quvchilar ongiga singdirishda shu ruhdagi diktant matnlarini tanlash ham ahamiyat kasb etadi.

Ta`lim maskanlarida ona tili ta`limiga alohida e`tibor qaratilishini nazarda tutsak, milliy g`oya targ`ibotida til mashg`ulotlaridan unumli foydalanish mumkinligini ko`ramiz. Matn ustida ishslash, mashq bajarish, ijodiy insho yozish, kichik bog`lanishli matn tuzdirish kabi ijodiy ishlarda milliy istiqlol g`oyasini singdirish amalga oshiriladi. Ona tili darslarida ham Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Sa`diyning «Guliston», A.Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq», A.Navoiyning «Mahbubul qulub», Kaykovusning «Qobusnama» asarlaridan, Amir Temur o`gitlaridan, Axmad Yassaviy xikmatlaridan unumli foydalanish mumkin. Mavzu asosida ulug` allomalarimizning xikmatli so`zlaridan misollar, asarlaridan iqtibos keltirish orqali yoshlarni milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalab, ularni tilimizni, dinimizni, o`tmish madaniyatimizni ulug`lash, o`zligimizni anglash, kelajakka ishonch bilan qarash,

vatanni, hayotni sevish tuyg'ulari shakllantiriladi. Bu o'rinda ma'rifiy matnlardan foydalanish ham mumkin. Matnlarda o'z ifodasini topgan umuminsoniy qadriyat – tinchlik, vatanparvarlik kabi g'oyalalar yoshlar uchun notanish tushunchalar emas. Lekin bugungi kunda uni asrashning nechog'lik mushkullashib borayotganligi, er yuzida xalqlarni tashvishga solayotgan xalqaro terrorizmning yovuzliklaridan xabardordir. Matnni o'qigan o'quvchi qalbini ana shu o'ylar tug'yonga keltiradi. Bu o'rinda parcha o'qilgandan keyinoq darhol mazmuni yuzasidan suhbat o'tkazish hamda matnni kengaytirish topshirig'ini berish mumkin.

- milliy istiqlol va millatning o'zligini anglashga yordam beruvchi, ulardagi milliy ruhiyatni shakllantiruvchi bayramlar – mustaqillik kuni, O'qituvchilar va murabbiylar kuni, Xotira va qadrlash kunlari munosabati bilan o'quvchilarga og'zaki va yozma matn tuzdirish, unda milliylik va mustaqillik uchun jon kuydirgan minglab o'zbek farzandlari haqida fikr bildirish kabi topshiriqlar berish;

- mustaqillik yillarida Bahouddin Naqshband, Imom Buxoriy, Imom Termizi, Axmad Farg'oniy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Jaloliddin Manguberdi kabi milliy qahramonlarimizning ibratli hayoti, ularning ozodlik to'g'risidagi g'oyalari milliy g'oya va istiqlol mafkurasining teran tomirlari ekanligini hisobga olgan holda kichik axborotlar tayyorlash, ijodiy matnlar: diktant, bayon, insho matnlarini ularning o'zlariga tuzdirish;

- xalqimizga xos bo`lgan iymon – e`tiqod, insof – diyonat, saxovat, halollik, mehr – oqibat, sharmu hayo kabi fazilatlarni mustahkamlashga xizmat qiladigan maqolalarni yod oldirish, ularga sharhlar berish, so`ngra matn tuzish ham yoshlarning mustaqil dunyoqarashi, erkin tafakkurini shakllantiradi.

Demak, milliy g'oya targ'ibotida milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini yosh avlod qalbiga va ongiga singdirishda boy va go`zal ona tilimizning imkoniyatlari kattadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullaev F.A. So`zlar o`zaro qanday bog'lanadi? Toshkent, 1974.
2. Abdullaev F.A. Til qanday rivojlanadi? Toshkent. 1972.
3. Abdurahmonov G', Shukurov Sh. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1973. – 320 bet.
4. B.To`xliev, M.Shamsieva, T.Ziyodova. O'zbek tili o`qitish metodikasi. Toshkent, 2006 yil